O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
QarMII rektori
_________ Bazarov O.Sh.
2022 yil "___" ________

# *BOSHQARUV HISOBI*

*fanining o'quv dasturi*

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | - | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 410000 | - | Biznes va boshqaruv |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 70410102 | - | Audit (tarmoqlar va sohalar boyicha) |

**Qarshi – 2022 yil**



Scanned with CamScanner

| Fan (modul) kodi<br>336 MACC1 4 2.02 | O'quv yili<br>2022-2023 | Semestr<br>1 | ECTS krediti<br>4 |
|---|---|---|---|
| Fan (modul) turi<br>Tanlov fani | Ta'lim tili<br>o'zbek | | Haftalik darssoati<br>4 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mash-g'ulotlari**(soat) | **Mustaqil ta'lim** | **Jami yuklama** |
| Бошкарув hisobi<br>1-semestr | 60 | 60 | 120 |
| Jami | 60 | 60 | 120 |

2.

## I. Fanning mazmuni

**"Boshqaruv hisobi" fanining asosiy maqsadi** – magistrlarga xojalik yurituvchi subektlarda boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish bo'yicha nazariy hamda amaliy ko'nikmalarni takomillashtirishdan iborat.

**Fanning vazifasi:** magistrlar bu fanni o'rganish orqali xo'jalik yurituvchi subektlar xarajatlarini minimallashtirib, mavjud bo'lgan material, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanish, foydani maksimallashtirish bo'yicha ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakalariga ham ega bo'lishadi.

Shu boisdan ham "Boshqaruv hisobi" fani xo'jalik yurituvchi subektlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ular faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Boshqaruv hisobi fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

-fanining mazmuni va kontseptsiyasi;
-xarajatlarni boshqarish;
-boshqaruv qarorlarini modellashtirish va eng optimallarini topish;
-baholarni shakllantirish, investitsiya va biznes tarkibini o'zgartirish haqida tasavvurga ega bo'lishi;
-tezkor va qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni;
-zararsizlik nuqtasi tahlili va marjinal foydani aniqlashni;
-xo'jalik subektlarida boshqaruv hisobini shakllantirishning nazariy va uslubiy masalalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
-boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida hisob ma"lumotlarini amaliy qo'llash;
-korxona faoliyatini rejalashtirish va byudjetlashtirish;
- boshqaruv hisobida menejerlar faoliyatini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
-tafovut va og'ishishlarni tahlili qilish;
- xo'jalik subektlarida boshqaruv hisobini amaliy tashkil qilish;
-strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakalariga ega bo'lishi lozim.



## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**"Boshqaruv hisobi" fanining ahamiyati, shakllanishi va rivojlanishi**
Xo'jalik yurituvchi subektlarni boshqarishning paydo bo'lishi, ahamiyati va rivojlanishi. Boshqaruvning mohiyati, tamoyillari va maqsadlari. Boshqaruv hisobinig tarixiy shakllanishi va rivojlanishi.

**Boshqaruv hisobida xarajatlarning o'rni va ularni boshqarish**
Boshqaruv hisobini tashkil qilishda xarajatlarni hisobga olish xususiyatlari. Xarajatlar tarkibi. Shartli-o'zgaruvchan, shartli-doimiy hamda yarim o'zgaruvchan xarajatlar. Ularni hisobga olish, taqsimlash tartibi va usullari.

**Boshqaruv qarorlarini qabul qilish asoslari**
Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari va modellari, ulardan samarali foydalanish. Boshqaruv hisobida relevant va norelevant xarajatlar.
Alternativ xarajatlar. Marjinal xarajatlar.

**Boshqaruv hisobida xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatini rejalashtirishva byudjetlashtirish**
Rejalashtirish asoslari va dasturi. Xo'jalik yurituvchi subekt byudjeti mohiyati vauni shakllantirish. Bosh byudjet, uning tarkibi va tuzish tartibi. Moslashuvchan va statik byudjet, ularni tuzish asoslari. Byudjetlashtirishda ishlab chiqarish dasturi.Pul mablag'lari byudjeti. Sotish hajmini rejalashtirish.

**Boshqaruv hisobida baho siyosati va transfert bahoni shakllantirish**
Makroiqtisod nuqtai nazaridan baholarni belgilash kontseptsiyasi. Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'rni va mazmuni. Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari. Maqsadga muvofiq holda ustamalar foizini aniqlash.
Baholar bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillar. Bahonibelgilash usullari.

**Xo'jalik yurituvchi subektlarning segmentar hisoboti**
Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish. Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar hisobotni tuzish qoidalari va tamoyillari. Ichki segmentar hisobotni tuzish qoidalari va tamoyillari. Segmentarhisobotni tuzish bosqichlari va uning vazifalari. Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida.

**Javobgarlik va mas'uliyat markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkilqilish**
Javobgarlik markazlarining turlari. Mas'uliyat markazlari faoliyatini moliyaviybaholash mezoni. Mas'uliyat markazlari faoliyatini baholashda nomoliyaviy mezonlar. Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar hisobini



Scanned with CamScanner

tashkil etish. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash.

**Zararsizlik nuqtasi tahlili va marjinal foyda**

Marjinal daromad haqida tushuncha. "Xarajat-ishlab chiqarish hajmi-foyda"ko'rsatkichlari tahlili. Zararsizlik (kritik) nuqtasini aniqlash. CVP – tahlilining asosiy muammolari. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish. Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari.

**Boshqaruv hisobida chiziqli dasturlash modeli**

Chiziqli dasturlash modellaridan foydalanish zaruriyati. Chiziqli dasturlashmodelining asosi. Chiziqli dasturlash modeli muammolarini echish bosqichlari.

**Investitsiya loyihalari va biznesning tarkibi bo'yicha boshqaruv qarorlariniqabul qilish**

Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Biznes tarkibini o'zgartirish b'yicha qarorlar qabul qilish va boshqaruv samaradorliginibaholash. Rivojlangan mamlakatlarning biznesni boshqarish tajribasi.

**Boshqaruv hisobida sifatni boshqarish va nazorat qilish**

Sifatni boshqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Sifat ko'rsatkichining mohiyati. Sifat nazorati. Sifat nazoratining xulqiy jihatlari.

**Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish yo'nalishlari**

Strategik boshqaruv hisobining xo'jalik yurituvchi subekt faoliyatini boshqarishdagi o'rni. Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishning nazariy va uslubiy asoslari. Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning amaliy jihatlari.

**Xo'jalik yurituvchi subektlarda boshqaruv hisobini amaliy jihatdan tashkilqilish**

Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integratsiyalashgan tizimlari. Xo'jalik yurituvchi subektlarda integratsiyalashgan hisob tizimini avtomatlashtirish hamda dasturlash xususiyatlari. Amaliy boshqaruv hisobiniisloh qilishning nazariy jihatlari.

**II. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

***(Seminar mashg'ulotlari), (Mustaqil ta'lim), (Kurs ishi)*** o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
"Boshqaruv hisobi" fanining ahamiyati, shakllanishi va rivojlanishi
Boshqaruv hisobida xarajatlarning o'rni va ularni boshqarish.
Boshqaruv qarorlarini qabul qilish asoslari
Boshqaruv hisobida xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatini rejalashtirish va byudjetlashtirish



Boshqaruv hisobida baho siyosati va transfert bahoni shakllantirish
Xo'jalik yurituvchi subektlarning segmentar hisoboti
Javobgarlik va mas'uliyat markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish
Zararsizlik nuqtasi tahlili va marjinal foyda
Boshqaruv hisobida chiziqli dasturlash modeli
Investitsiya loyihalari va biznesning tarkibi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish
Boshqaruv hisobida sifatni boshqarish va nazorat qilish
Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish yo'nalishlari.
Xo'jalik yurituvchi subektlarda boshqaruv hisobini amaliy jihatdan tashkil qilish

**IV. Fan bo'yicha kurs ishi**

Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejasida rejalashtirilmagan.

**V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni. "Boshqaruv hisobi" fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o'rganishjarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'lata'minlangan.

"Boshqaruv hisobi" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda internet saytlaridan foydalanib, konspektlar, referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarnimustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma"ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlashva ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o„quvfaoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg„ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Talabalarga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma"ruzalar qismini o'zlashtirish;
- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;



Scanned with CamScanner

- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo 'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;
- interaktiv va yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida faolqatnashish;
- masofaviy (distansion) ta'limni tashkil etishda qatnashish;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish.

"Boshqaruv hisobi" fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

| Mavzuga oid bo'lim | Mustaqil ta'lim mavzusi | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar |
|---|---|---|
| Boshqaruv hisobida xarajatlarni boshqarish | Boshqaurv hisobi fanining predmeti, tadqiqot usullari | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot |
| Boshqaruv hisobida xarajatlarning o'rni va ularniboshqarish | Boshqaruv hisobini tashkil qilishda xarajatlarni hisobgaolish xususiyatlari | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| Boshqaruv qarorlarini qabulqilish asoslari | Boshqaruv qarorlarini qabulqilish usullari va modellari, ulardan samarali foydalanish | Keys stadi tayyorlash |
| Boshqaruv hisobida xo'jalikyurituvchi subektlar faoliyatini rejalashtirish va byudjetlashtirish | Rejalashtirish asoslari va dasturi. Xo„jalik yurituvchi subekt byudjeti mohiyati va uni shakllantirish. Bosh byudjet, uning tarkibi va tuzish tartibi. Moslashuvchanva statik byudjet, ularni tuzish asoslari. Byudjetlashtirishda ishlab chiqarish dasturi. Pul mablag'lari byudjeti. Sotishhajmini rejalashtirish | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| Boshqaruv hisobida baho siyosati va transfert bahoni shakllantirish | Makroiqtisod nuqtai nazaridan baholarni belgilashkontseptsiyasi. Baho siyosatida transfert bahoningtutgan o„rni va mazmuni. Transfert bahoni aniqlashtartibi va tamoyillari | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| Xo'jalik yurituvchi subektlarning segmentarhisoboti | Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish. Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar hisobotni tuzishqoidalari va tamoyillari. | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| Javobgarlik va mas"uliyatmarkazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkilqilish | Javobgarlik markazlarining turlari. Mas'uliyat markazlari faoliyatini moliyaviy baholash mezoni. Mas"uliyatmarkazlari faoliyatini baholashda nomoliyaviy mezonlar | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| Zararsizlik nuqtasi tahlili vamarjinal foyda | Marjinal daromad haqida tushuncha. "Xarajat-ishlab chiqarish hajmi-foyda" ko'rsatkichlari tahlili. Zararsizlik (kritik) nuqtasinianiqlash. CVP – tahlilining asosiy muammolari | Keys stadi tayyorlash |
| Boshqaruv hisobida chiziqlidasturlash modeli | Chiziqli dasturlash modellaridan foydalanish zaruriyati. Chiziqli dasturlash modelining asosi. Chiziqli dasturlash modeli muammolarini echish bosqichlari | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |





Scanned with CamScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Investitsiya loyihalari vabiznesning tarkibi bo'yicha boshqaruvqarorlarini qabul qilish | Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishva boshqaruv samaradorligini baholash | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| | Boshqaruv hisobida sifatniboshqarish va nazorat qilish | Sifatni boshqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Sifat ko'rsatkichining mohiyati. Sifat nazorati. Sifat nazoratining xulqiy jihatlari | Keys stadi tayyorlash |
| | Strategik boshqaruv hisobinitashkil qilish yo'nalishlari | Strategik boshqaruv hisobining xo'jalik yurituvchi subekt faoliyatini boshqarishdagi o'rni. Strategik boshqaruv hisobini'tashkil etish va yuritishning nazariy va uslubiy asoslari | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| | Xo'jalik yurituvchi subektlarda boshqaruv hisobini amaliyjihatdan tashkil qilish | Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integratsiyalashgan tizimlari. Xo'jalik yurituvchi subektlarda | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar |
| 5. | | integratsiyalashgan hisobtizimini avtomatlashtirish hamda dasturlash xususiyatlari | |
| | Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash va o'rnatilgan tartibda taqdim etish tavsiya etiladi. | | |



| | |
|---|---|
| 6. | **VI Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak:<br>Boshqaruv hisobi fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:<br>- fanining mazmuni va kontseptsiyasi;<br>- xarajatlarni boshqarish;<br>- boshqaruv qarorlarini modellashtirish va eng optimallarini topish;<br>- baholarni shakllantirish, investitsiya va biznes tarkibini o'zgartirish haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>- tezkor va qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni;<br>- zararsizlik nuqtasi tahlili va marjinal foydani aniqlashni;<br>- xo'jalik subektlarida boshqaruv hisobini shakllantirishning nazariy va uslubiy masalalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>- boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida hisob ma'lumotlarini amaliy qo'llash;<br>- korxona faoliyatini rejalashtirish va byudjetlashtirish;<br>- boshqaruv hisobida menejerlar faoliyatini baholash ko„nikmalariga ega bo'lishi;<br>- tafovut va og„ishishlarni tahlili qilish;<br>- xo'jalik subektlarida boshqaruv hisobini amaliy tashkil qilish;<br>- strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakalariga ega bo'lishi lozim. (malaka) |
| 7. | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 8. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish (test va og'zaki)ni topshirish. |
| 9. | **IX. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari**<br>**Asosiy adabiyotlar:** |



Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| | 1. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.<br>2. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.<br>3. Kuljonov O., Ortiqov X., Yugay L., Tuxsanov X., M.Xayitboyev Moliyaviy hisob.,O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b.<br>4. Norbekov D., To'rayev A., Raxmonov Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –350 b.<br>5. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G'. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.<br>6. Pardayev A., Pardayev B. "Boshqaruv hisobi" T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015 yil 251 b.<br>7. Xasanov B., G'aniyev Z., Muxammedova D. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –279 b.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>8. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.<br>9. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.<br>10. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat''iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.<br>11. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.<br>12. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.<br>13. Karimov A., Muqumov Z, Tulayev M., Kurbanbayev J., Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.<br>14. Norbekov D., Maxmudov A., Muxammedova D. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 236 b.<br>15. An Introduction to Accounting Theory, 1st edition. 2016, UWS, Australia.<br>16. Wan Madznah Wan Ibrahim Mohd Rizal Palil "Fundamentals of Business Accounting" 2nd edition Published by Oxford Fajar Sdn. Bhd. Selangor Darul Ehsan, Malaysia 2014.<br>**17.** Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Ducae "Financial and Managerial Accounting" 12th edition, South-Western, Cengage Learning, USA, 2014.<br>**Internet saytlari:**<br>18. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>19. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>20. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti |



| | |
|---|---|
| | 21. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti<br>22. www.ziyonet.uz – Axborot-ta'lim portali<br>23. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti<br>24. www.sciencedirest.com. – Ommabop ilmiy jurnallar sayti<br>25. www.reader.elsevier.com. – Ommabop ilmiy jurnallar sayti<br>26. www.scopus.com. – Xalqaro maqola va anjumanlar sayti |
| **10.** | "Boshqaruv hisobi" fanining o'quv dasturi QarMII Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2022 yil 24 iyundagi 11-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil 28.06 dagi 11 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan fan dasturlarini o 'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan. |
| **11.** | **Fan/modul uchun mas'ul:** "Buxgalteriy hisobi va audit" kafedrasi dotsenti G.J.Jumayeva |
| **12.** | **Taqrizchilar:**<br>**Z.Ergasheva** **Qarshi shahar "Audit-hisob markazi" MCHJ raisi**<br>**S.N.Hamrayeva** **QMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi mudiri.** |



Scanned with CamScanner